

Dehqonobod tumanidagi mahallalarida amaliy ishlar ijrosi o'rganildi

// 07 May 2025 yil

<https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/dehqonobod-tumanidagi-mahallalarida-amaliy-ishlar-ijrosi-o-r>



Joriy yilning 5-6-may kunlari "O'zkimyosanoat" AJ boshqaruvi raisiga birlashtirilgan Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumanidagi "Obod", "Bozortepa", "Ayrivedol" va "Chashmaimiron" mahallalarida Jamiyat boshqaruv raisining maslahatchisi S. Abduraxmanova tomonidan yo'l xaritasida belgilangan amaliy ishlar ijrosi o'rganildi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-330-son qarorida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida olib borilayotgan ushbu chora-tadbirlarda mazkur mahallalarda joylashgan ijtimoiy obyektlar ko'zdan kechirilib, mavjud muammolarni hal etish yuzasidan tegishli choralar ko'riladigan bo'ldi.





"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati